

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 1 (1600), 2026-yil 1-yanvar, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



Qadrli vatandoshlarim!

Siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni kirib kelayotgan yangi 2026-yil bilan chin yurakdan muborakbod etaman.

O‘tib borayotgan yil xalqimiz hayotida katta o‘zgarishlar, ertangi kunga mustahkam ishonch va ulkan natijalar yili bo‘ldi.

Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, biz o‘z oldimizga qo‘ygan barcha maqsad va marralarga erishdik. O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi ilk bor 145 milliard dollardan oshdi va mamlakatimiz o‘rta daromadli davlatlar qatoridagi o‘rmini mustahkamladi.

Iqtisodiy o‘sish samarasi odamlarimiz hayotida, oilalar daromadida, mahallalar qiyofasida, yoshlarimizning kelajakka bo‘lgan ishonchida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘tayotgan yilda har bir oila, har bir xonadonda xursandchiliklar, baxtli onlar ko‘p bo‘ldi.

Yangi uyga ko‘chib kirgan, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan yoki kengaytirgan, daromadi oshgan, ilm-fan, sport, madaniyat va boshqa sohalarda o‘zi yoki farzandlarining yutuqlaridan quvongan millionlab oilalarning shodligi 2026-yildagi maqsadlarimizga erishish yo‘lida bizga albatta katta kuch beradi.

Aziz yurtdoshlarim!

Biz kelgusi yilda ham har bir oilaning baxtli, farovon va sog‘lom hayot kechirishi, yoshlarimizning sifatli ta‘lim olishlari, kelajak kasblarini egallashlari va sport bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun yangi-yangi imkoniyatlarni ishga solamiz!

Biz 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qildik.

Yangi yilda minglab mahallalar infratuzilmasini yaxshilab, ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kiramiz.

Barcha iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazamiz. Xalqimizning daromadi va xarid qobiliyatini oshirish ishlarini yanada jadallashtiramiz.

Aholining yordamga muhtoj qatlamlari, muhtaram keksalarimiz, qadrli xotin-qizlar va navqiron yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlashni kengaytiramiz.

Ekologiyani yaxshilash, “yashil” energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ta’sirchan choralarni davom ettiramiz.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi 2026-yilda ham barcha islohotlarimiz, sa’y-harakatlarimiz odamlarimiz yaxshi yashashi va biznes uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga qaratiladi.

Tajribali mahalla raislari va faollari, ziyolilar, tadbirkorlarimiz, serg‘ayrat yoshlarimiz, keng jamoatchiligimiz, har bir vatandoshimiz ushbu olijanob ishlarga munosib hissa qo‘shadi deb ishonaman!

Aziz vatandoshlarim!

Yangi yil arafasida har bir oila yaxshi niyatlar qiladi, har bir inson qalbida yorqin orzu-umidlari jo‘sh uradi.

Har birimizning pok niyatlarimiz, ezgu maqsadlarimiz 2026-yilda albatta amalga oshsin!

Yangi yil har bir oilaga sihat-salomatlik, baxt-saodat, qut-baraka, yurtimizga yuksak taraqqiyot, tinchlik-xotirjamlik olib kelsin!

Yaratgan Parvardigor Vatanimizni asrasin, xalqimiz hayotini yanada yaxshilash yo‘lidagi ishlarimizda madadkor bo‘lsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo‘lsin, azizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SAMIMIY QUTLOVLAR

Kirib kelayotgan yangi 2026-yil munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar, parlamentlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, yetakchi moliyaviy institutlar rahbarlari, taniqli siyosatchilar, jamoat va din arboblari samimiy tabrik va tilaklar kelmoqda.

Qutlovlarda Prezidentimiz rahbarligida Yangi O‘zbekistonda barpo etish strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli siyosiy yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga yuksak baho berilgan. Mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi tobora mustahkamlanib borishiga xizmat qilayotgan proaktiv, ochiq va pragmatik tashqi siyosatning samaralari alohida qayd etilgan.

Xorijiy hamkorlar O‘zbekiston yetakchisi va ko‘p millatli xalqiga yangi yilda tinchlik-osoyishtalik, baxt-saodat, farovonlik, katta muvaffaqiyatlar va ravnaq tilaklarini izhor etmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Yangi yil bayrami munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qiling.

O‘tayotgan yil Rossiya – O‘zbekiston aloqalari uchun juda muvaffaqiyatli bo‘ldi. Davlatlarimiz siyosiy, savdo-iqtisodiy, gumanitar va boshqa sohalarda, MDH, SHHT va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

Moskva va Toshkent o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini do‘st xalqlarimiz farovonligi, mintaqaviy va xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo‘lida bundan buyon ham har tomonlama rivojlantirishimizga ishonaman.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, oilangiz va yaqinlaringizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, O‘zbekistonning barcha fuqarolariga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN,
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti



O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Kirib kelayotgan yangi 2026-yil munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz!

Sizga bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat, oilaviy farovonlik va qardosh O‘zbekiston xalqining ravnaqi yo‘lidagi mas‘uliyatli davlatchilik faoliyatingizda yangi zafarlar tilayman!

Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozog‘iston Respublikasi
Prezidenti



O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan samimiy muborakbod etaman.

O‘tgan yil Qirg‘iziston – O‘zbekiston munosabatlarining amaliy mazmunini yanada mustahkamlash va kengaytirish yili bo‘ldi.

Ishonchga asoslangan siyosiy muloqotning yuqori darajasi va erishilgan kelishuvlar ikki mamlakatning strategik sherikligini yangi bosqichga ko‘tardi.

Ishonchim komilki, kelgusi yilda ham ko‘p qirrali hamkorligimiz do‘stlik va o‘zaro ishonch asosida, qardosh xalqlarimizning tinchligi va bardavom farovonligini ta‘minlashga qaratilgan holda muvaffaqiyatli rivojlanishda davom etadi.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq, davlat rahbari sifatidagi faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh o‘zbek xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Sadir JAPAROV,
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti



O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga

Qadrli Shavkat Miromonovich!

Sizni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman!

Shu munosabat bilan Sizga va Sizning yaqinlaringizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va farovonlik, birodar O‘zbekiston Respublikasi xalqiga esa tinchlik, barqarorlik va yanada izchil taraqqiyot tilayman.

2025-yilda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari yuqori sur‘atni saqlab qolgani hamda xalqlarimiz farovonligi yo‘lida izchil rivojlanishga qaratilgan yangi qo‘shma qadamlar bilan nishonlanganini mamnuniyat bilan ta’kidlash joiz.

Ishonchim komil, kirib kelayotgan 2026-yilda ham davlatlarimizning samarali hamkorligini yangi amaliy mazmun bilan boyitamiz.

Strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhida ishonchli davlatlararo muloqotni davom ettirishdan mamnun bo‘laman.

Hurmat bilan,

Emomali RAHMON,
Tojikiston Respublikasi Prezidenti

Davomi 2-betda



SHUKRONALIK
SAODATI

2

ULARNING HAR BIRINI
PORLOQ KELAJAK
KUTADI

“Prezident archasi” bayram tadbirlarida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangicha an‘ana yo‘lga qo‘yildi. Yangi yil sovg‘asiga qo‘shimcha ravishda bolalar uchun omonat depozit hisobraqamlari ochilyapti. 8000 dan ortiq yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il-qizlar uchun ochilgan ushbu hisobraqamlarga davlat tomonidan 500 AQSH dollari miqdorida mablag‘ joylashtirilmoqda.

2



YIL
SARHISOBI

YANGI O‘ZBEKISTON
sari katta qadam

3

YANGI O'ZBEKISTON
sari katta qadamIqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligi
yo'lida yilning eng muhim voqealari

2025-yil O'zbekistonda yuz yillikka tatigulik, tarixga zarhal harflar bilan yoziladigan muhim voqealarga boy bo'ldi. Keling, o'ziga xos ayni sarhisob pallasida yurt taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini yanada yuksaltirishga zamin yaratayotgan mana shunday muhim tashabbuslar, erishilgan tarixiy natijalarga bir qur nazar tashlaymiz. Aslida, ularni birma-bir sanasak, ko'p sahifali kitoblarga ham sig'masligi aniq. Shuning uchun ortda qolgan yilning eng muhim voqealari va ko'rsatkichlarini alohida keltirishga qaror qildik.

EKOLOGIK MUVOZANATNI
SAQLASH VA SUV SIYOSATI:

- "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 200 milliondan ortiq daraxt va buta ko'chati ekildi, 208 ta bog' va park, shuningdek, Orolbo'yida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida 150,7 ming gektar himoya o'rmoni barpo qilindi.
- O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi tasdiqlandi. Bu bilan mamlakatda suv munosabatlari sohasidagi asosiy huquqiy hujjatlar tizimlashtirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, shuningdek, Prezidentimizning 8 ta farmoni va 14 ta qarori hamda hukumatning 26 ta qaroridagi normalar birlashtirildi.
- 188 ta mahalladagi 715 ming odam yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suv kirib bordi. Yana 2 million 300 mingga yaqin fuqaroning suv ta'minoti yaxshilandi.

IQTISODIY
BARQARORLIK
YO'LIDA:

- Prezidentimiz 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasini yo'lladi. So'nggi to'qqiz yilda jamiyatimiz va davlatimiz bosib o'tgan katta taraqqiyot yo'li teran hamda xolis tahlil qilingan Murojaatnomada 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalishdan iborat istiqbol dasturi taqdim etildi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot shiddatidan kelib chiqib, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini qayta ko'rib chiqish tashabbusi ilgari surildi.
- 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti tariximizda birinchi marta 145 milliard dollardan oshdi.
- Yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini "BB-"dan "BB" pog'onasiga ko'tardi. Iqtisodiy barqarorlik yuqori baholanishida oltin-valyuta zaxiralarimiz mamlakat tarixida ilk bor 60 milliard dollardan yuqori bo'lgani hamda eksport hajmi 23 foiz oshib, 33,4 milliard dollarga, xorijiy investitsiyalar qiymati 43,1 milliard dollarga yetkazilgani ham zamin hozirladi.
- O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish uchun zimmasiga olgan majburiyatlarni to'liq bajardi. 2026-yilda mamlakatimizning tashkilotga a'zo bo'lishi kutilmoqda.
- 35 milliard dollar sarmoya evaziga 9000 dan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish o'rni tashkil etildi.

IJTIMOIY HAYOT
YO'NALISHIDA:

- Mamlakatimizda kambag'allik darajasi 2025-yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand kishi kambag'allikdan chiqarilib, ilk bor 1435 ta mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylandi. Natijada 2026-yil yakuni bilan kambag'allikni 2 karra qisqartirish bo'yicha olingan marra 2025-yilning o'zida uddalandi.
- 5 million fuqaro daromadli bo'ldi, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Ishsizlik 2 karra qisqardi.
- Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrovi darajasi 27 foizdan 78 foizga oshdi. Yoshlarning oliy ta'limga qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetdi.

BUNYODKORLIK
YO'NALISHIDA:

- Aholiga 8 million 100 ming kvadrat metrli 135 ming xonadondan iborat ko'p qavatli uylar topshirilmoqda. Odamlarning o'zi ham yashash sharoitini yaxshilash uchun 19 million kvadrat metr maydonda qurilish qildi. Biznes vakillari tomonidan 24 million kvadrat metr noturar joy obyektlari barpo etildi.
- Yangi Toshkentda Olimpiya shaharchasi barpo etildi hamda Andijon viloyatidagi 4000 gektar maydonda yangi shahar — Bobur shahri, Xorazm viloyati Xiva shahrida "Arda Xiva" xalqaro turizm markazi qurib bitkazildi.

SPORT
yo'nalishida:— FUTBOL BO'YICHA O'ZBEKISTON MILLIY
TERMA JAMOASI TARIXDA ILK BOR JAHON
CHEMPIONATI YO'LLANMASINI QO'LGA KIRITDI.

- O'zbekiston shaxmatchisi Javohir Sindorov Hindiston mezbonlik qilgan FIDE jahon kubogi — 2025 finalida g'olib bo'ldi. E'tiborlisi, shaxmatchimiz chempionat tarixidagi (19) eng yosh jahon kubogi sohibiga ham aylandi.
- Sportchilarimiz Yoshlar paraosiy o'yinlarida 125 oltin, 77 kumush va 52 bronza medalni qo'lga kiritib, ishtirokchi davlatlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi.
- Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan futbol bo'yicha U-17 yosh toifasidagi Osiyo kubogida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi chempion bo'ldi.

O'ZBEKISTON —
XALQARO MULOQOT
MAYDONI:

- Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasi keyingi qirq yilda ilk bor Fransiya'dan tashqarida — madaniyatlar chorrahasi, sivilizatsiyalar beshigi bo'lmish ko'hna kentda o'tkazildi.
- Samarqand "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitiga mezbonlik qildi.
- Ko'hna va hamisha navqiron shaharda Xalqaro iqlim forumi o'tkazildi.
- Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi o'tkazildi.
- Poytaxtimizda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi.

ENERGETIKA
YO'NALISHIDA:

- Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi ilk bor 85 milliard kilovatt-soatga, e'tiborlisi, mamlakatimiz elektr energiya ishlab chiqarish tarmog'ida ishlab chiqarilayotgan jami generatsiya quvvatlarida "yashil" energiya ulushi 30 foizga yetkazildi.
- 5-dekabr kuni Prezidentimiz boshchiligidagi qariyb 11 milliard dollarlik 42 ta energiya ishlab chiqarish va saqlash quvvatlari hamda boshqa infratuzilma inshootlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Navbatdagi 21 tasining qurilishi boshlandi.

TRANSPORT-
LOGISTIKA
YO'NALISHIDA:

- Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport qurilishiga start berildi. O'rta Chirchiq va Quyi Chirchiq tumanlaridagi 1300 gektar maydonda barpo etilayotgan multimodal aeroport Markaziy Osiyoda shu yo'nalishdagi eng katta loyihadir. "Toshkent-Humo" xalqaro aeroporti foydalanishga topshirildi.
- Yer osti va yer usti metropoliteni liniyalarining umumiy uzunligi 70,5 kilometrta, bekatlar soni 29 tadan 50 taga yetkazildi. Metro bir kunda 900 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatmoqda.
- Oxirgi uch yilda avtoyo'l sohasiga qariyb 40 trillion so'm ajratilib, 63 ming kilometr yo'lga qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Sohaga xorijdan jalb qilinayotgan mablag' 3 barobar oshib, 2025-yilda 1,2 milliard dollarga yetdi.
- Yangi O'zbekiston ko'chasi bo'yab uzunligi 468, kengligi 25 metr bo'lgan yer osti avtomobil yo'li barpo etildi. U soatiga 10 mingdan ziyod avtomobilni o'tkazish imkoniyatiga ega. Mazkur yo'nalishda loyihalashtirilgan metro yo'li uchun tunnel va bekat ham qurildi.

XALQARO
HAMKORLIK
YO'NALISHIDA:

- Prezidentimiz AQSHga amaliy tashrifi doirasida BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida nutq so'zladi. AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashdi, o'zaro muloqotlarda O'zbekiston va AQSH o'rtasida 100 milliard dollardan ortiq qiymatdagi istiqbolli shartnomalar imzolandi.
- O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.
- Prezidentimizning Fransiya'da davlat tashrifi doirasida ushbu davlat yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekistonda 6,5 milliard yevrolik istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi kelishuvga erishildi.
- Davlatimiz rahbari Tokioda "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqotining birinchi sammitida ishtirok etdi. Rasmiy tashrif doirasida iqtisodiy zonalarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, tibbiy asbob-uskunalar yetkazib berish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi kelishuvlarga erishildi.

20 kishi men bilan birga mehnat qiladi. Bundan tashqari, 30 ga yaqin shogirdim bor. Ular ham kasnachilik orqali uyini o'tirib, pul topmoqda.

Doromadim ham yaxshi. Bir oyda o'tiracha 15-20 million so'm afrodiya beroladi. Ishimni asosan qo'l mehnati. Shu sabab mahsulotimizga ko'proq xorijlik mehnatlar qiziqish bildiradi.

2025-yil men uchun juda omadli keldi. Mustaqillik bayrami arafasida yaqinlarni birdan tabriklay ketdi. Rosti, hech narsadan xabarim yo'q edi. Bilsam, "Jasorat" medalini bilan taqdirlanibman. Buni eshitib, boshim ko'kka yetdi. Ishonasismi, bir oygacha o'sha hayajon, ko'tarikiliklil sira tark etmadim. Kamtarona mehnatlarin yuksak taqdirlangan hayotga ishonchimni yana bir bor oshirdim.

Bu yurtda har bir inson e'tiborda ekanini angladim. Rag'batdan ruhlanib, yanada yangi ishlarni boshlashni maqsad qildim. Kelgusida to'liq loyihalarni amalga oshirib, ko'proq ish o'rni yaratmoqchiman. Imkoniyati cheklangan xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida, ham alohida rejam bor. Har bir yil 2025-yildagi omadli bo'lsin, 2026-yil barchaga quvonch olib kelsin!



PREZIDENT MUROJAATNOMASI: O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING STRATEGIK DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan bu galgi Murojaatnomasi o‘z ahamiyatiga ko‘ra har yilgi siyosiy Murojaatnoma doirasidan ancha keng. U mamlakatning sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga – islohotlarni institutsional mustahkamlash va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan barqaror o‘shish modelini shakllantirishga o‘tishini qayd etuvchi strategik hujjatdir.



Eldor ARIPOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Strategik
va mintaqalararo tadqiqotlar
instituti direktori

hisobiga eksport hajmi bir necha barobar ko‘paydi.

Makroiqtisodiy muvozanat alohida e‘tiborga loyiq. Iqtisodiyot va investitsiyalarning o‘shishi davlat qarzining nazorat qilnadigan darajasi va moliyaviy barqarorlik saqlanib qolgan holda kechdi. Bu juda muhim. Chunki so‘nggi yillar tajribasi tegishli muvozanatsiz jadal o‘shish ko‘pincha kelajakdagi rivojlanish uchun cheklolvar to‘planishga olib kelishini ko‘rsatadi. Murojaatnomada ta‘kidlanishicha,



O‘zbekiston ongli ravishda ehtiyotkorona, ammo strategik jihatdan manfaatli yo‘nalishni tanlab olgan.

So‘nggi o‘n yillikdagi dinamikani taqoslash muhim strategik xulosa chiqarish imkonini beradi: O‘zbekiston kelajakdagi rivojlanish iqtisodiyot ko‘lami bilan emas, balki uning sifati bilan belgilanadigan bosqichga yaqinlashdi. Shuning uchun ham



2010-yillarning o‘rtalarida tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi 12-13 milliard dollar atrofida bo‘lgan, so‘nggi yillarda esa bu ko‘rsatkich barqaror ravishda 24-25 milliard dollardan oshmoqda. Bu o‘shish nafaqat narx konyunkturasini tufayli, balki eksport tarkibining o‘zgarishi hisobiga ham yuz berdi. Bu o‘zgarish qayta ishlash sohaslarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. To‘g‘riqanchilik mahsulotlari eksporti o‘n yilda uch baravardan ziyod oshdi — 1 milliard dollardan kamroq ko‘rsatkichdan qariyb 3 milliard dollargacha va undan ortiq. Bu xomashyo eksportidan tayyor mahsulotga o‘tishni aks ettiradi. Xuddi shunday o‘shish sur‘ati elektrotexnika, kimyo va oziq-ovqat sanoatida ham ko‘rinmoqda. Ushbu sohalarda ishlab chiqarish zanjirining kengayishi va yangi bozorlarga chiqish

Murojaatnomada mehnat unumdorligini oshirish, texnologik yangilash va sanoatlashirishni chuqurlashtirish vazifasi markaziy o‘rinni egalladi.

O‘n yil avvalgi boshlang‘ich nuqta bilan solishtirganda mamlakat iqtisodiyoti yanada keng ko‘lamli, diversifikatsiyalangan va barqaror bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar aholi farovonligini oshirish, O‘zbekistonning mintaqaviy va global iqtisodiyotdagi o‘rinni mustahkamlash uchun uzoq muddatli strategik asos hozirlaydi.

Murojaatnomaning eng muhim xususiyatlaridan biri davlat va fuqarolar o‘rtasidagi aloqaning yorqin ifodasi bo‘ldi. Buni, ayniqsa, amalga oshirilayotgan islohotlarning aholi ehtiyojlariga qanchalik mos kelayotganida ham ko‘rish mumkin.

Ayol qadri ULUG‘LANGAN JAMIYAT

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va ko‘p millatli xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida ilgari surilgan g‘oyalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilab berdi. Ana shu ustuvorliklar orasida oila va xotin-qizlar siyosati nafaqat ijtimoiy masala, balki milliy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida e‘tirof etildi.



Zulayho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o‘rinbosari — Oila va
xotin-qizlar qo‘mitasi raisi

sodiqlashimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak”, dedi davlatimiz rahbari. Bugun demokratik jamiyatda turli fikr va qarashlar mavjudligi tabiiy hol. Biroq barchani birlashtiradigan, umummilliy manfaat sifatida qabul qilinadigan ustuvor g‘oya bor bu — Vatan va xalq manfaatidir. Ana shu g‘oyani hayotga tatbiq etishda mahalla tizimining o‘rni beqiyos. Mahalla



tinch va ahil bo‘lsa, jamiyat barqaror bo‘ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakat yuksaladi. Shu ma‘noda, 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilinishi chuqur o‘ylangan ijtimoiy-siyosiy qarordir.

Ushbu ustuvor yo‘nalishlar asosida qabul qilinadigan davlat dasturi mahallani mehroqib, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirishni ko‘zda tutadi. Bu jarayonda xotin-qizlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mahallada ma‘naviy muhitni shakllantirish, oila barqarorligini ta‘minlash, yosh avlod tarbiyasida ayollar hal qiluvchi kuchdir.

Murojaatnomadagi yana bir muhim yo‘nalish iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazishdir. 2026-yilda yana 1 million kishini doimiy ish bilan ta‘minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allik va ishsizlik darajasini 4,5 foizga tushirish kabi vazifalar aniq va mas‘uliyatli maqsadlar sifatida qo‘yildi. Bu raqamlar ortida, avvalo, millionlab oilalar taqdiri, xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi va iqtisodiy barqarorligi turibdi.

Xotin-qizlar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish masalasiga mutlaqo aniq va prinsipial yondashuv bildirildi. Bu yondashuv davlatning huquqiy pozitsiyasi bilan birga jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va ma‘naviy yo‘nalishini ham belgilab bermoqda. Ayol qadri ni ulug‘lash, bola huquqlarini ta‘minlash xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma‘naviy mezonlari, bu qadriyatlar yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma‘naviy poydevori ekanini alohida ta‘kidlandi.

“Hech qachon unutmaylik, oilaviy zo‘ravonlik — bu faqat oilaning ichki ishi emas, bu — butun jamiyatga tegishli masala. Ayolni o‘z muammosi bilan yolg‘iz tashlab qo‘yishga hech kimning haqqi yo‘q!” dedi davlatimiz rahbari.

Zo‘ravonlik — inson qadriga tajovuz, bola taqdiriga beparvolik va jamiyat barqarorligiga tahdid. Bu borada davlat, parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Murojaatnomada

Mamlakatimizda keyingi yillarda oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosati tubdan yangicha mazmun kasb etdi. Bu siyosatga alohida yo‘nalish yoki tor ijtimoiy masala sifatida emas, aksincha, inson qadri ni yuksaltirish, jamiyat barqarorligini ta‘minlash va mamlakat taraqqiyotining strategik asosi sifatida qaralmoqda. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash, ijtimoiy himoya va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan izchil islohotlar yurtimizda insonparvar davlatchilik modelini shakllantirishga qaratilgan.

Yurtimiz bo‘ylab bayram shukhi keziy yurgan shu kunlarda xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, salohiyati va fidokorona mehnatini yuksak e‘tirof etuvchi muhim tadbir bo‘lib o‘tdi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan an‘anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Yil ayoli” milliy tanlovi hamda “Eng namunali xotin-qizlar faoli” tanlovining respublika bosqichi g‘oliblari taqdirlandi.

Tanlovning tuman va shahar bosqichlarida minglab ayollar ishtirok etgani, finalga esa barcha hududdan eng faol, tashabbuskor va jamiyat ishonchini qozongan xotin-qizlar yetib kelgani uning keng qamrovi va ijtimoiy ahamiyati yanada yuksalganini yaqqol namoyon etdi. Respublika bosqichida 13 ta nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar aniqlanib, zamonamizga xos — ilm-fan, tadbirkorlik, ma‘naviyat, ta‘lim, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy tashabbuslarda peshqadam, shu bilan birga, farzand tarbiyasida alohida maktab yaratgan uy bekalari bo‘lgan ayollar kasb etildi. “Yil ayoli — 2025” Gran-pri sohibi Gulmira Jumayevaning hayot yo‘li sabr, matonat va fidokorlik timsolidir. U uzoq yillar mehnat migratsiyasida yurib, hayot sinovlarini mardona yengib o‘tgan. Vatanga qaytgach esa xotin-qizlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlardan oqilona foydalanib, bugun tadbirkorlik va ekologiya sohaslarida samarali faoliyat yuritmoqda. Ish o‘rinlari ochish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tashabbuslari bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan Gulmira Jumayeva ushbu samarali ishlari uchun Prezidentimiz sovg‘asi — avtomobil bilan taqdirlandi.

Ilm-fan va innovatsiya yo‘nalishida esa “Yil ayoli” milliy tanlovining 1-o‘rin sohibi Dildora Muhamedovaning sun‘iy intellekt va tibbiyot integratsiyasiga qaratilgan ilmiy ishlanmalari nafaqat fan sohasida, balki sog‘liqni saqlash amaliyotida ham keng ijtimoiy ahamiyat kasb etib, aholi salomatligi muhofazasiga xizmat qilayotir.

Shuningdek, tanlov g‘oliblari orasida tadbirkorlik orqali minglab ish o‘rinlari ochgan, ilm-fan va innovatsiyani amaliyotga tatbiq etgan, mahalla va jamiyat hayotida faol ishtirok etib kelayotgan ayollar bor. Ayniqsa, “Matonati ayol” nominatsiyasiga sport sohasida yurtimiz sharafiga munosib himoya qilgan qizimiz Husniyabonuning onasi loyiq ko‘rildi va uning ko‘p yillik mehnati e‘tirof etildi. Zoro, sportchi qizimizning tarixiy yutuqlari ortida onasining bemisl matonati, sabri va shukronasi turibdi.

Mahalladagi ezgu tashabbuslarni respublika miqyosida samarali harakatga aylantirgan “Eng namunali xotin-qizlar faoli” tanlovi g‘oliblarining taqdirlanishi ham davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi ishonchli ko‘priksif sifatida ayollar faolligining naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Ushbu tanlovlar yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ularning salohiyatiga ishonch va davlat siyosatida ayol, inson qadri yuksak o‘rin tutayotganining amaliy ifodasidir. Bunday fidoyi ayollarning zamonamiz qahramonlari sifatida e‘tirof etilishi esa bugungi islohotlarning to‘g‘ri va izchil yo‘lda davom etayotganini tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ta‘lim olishi va salohiyatini tor‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyat yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Murojaatnomada ilgari surilgan g‘oyalari, olitita muhim ustuvor yo‘nalish ham aynan bu boradagi siyosiy irodaning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, jamiyatni birlashtiruvchi eng muhim tayanach oila va mahalla ekanini alohida ta‘kidlandi. “Tarix davomida qanday og‘ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birlamlikdan kuch oldik. Mashhaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo‘lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila — oilaga, qo‘shni — qo‘shniga ko‘mak berib yashagan. Biz mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doimo



Yuksalish pallas

Yil poyoniga yetib, yangi yilga umid va ishonch bilan qadam qoʻyar ekan, odam beixtiyor ortga nazar tashlaydi, mulohazaga choʻmadi. Yutuqlar, natijalar, rekordlar, olqishlar – hamma-hammasi ajoyib.

JAHON SHAXMAT TOJINI OʻZBEKISTONGA OLIB KELAMAN

Ammo ulardan ham avval bunday lahzada xayolingizga muvaffaqiyat yoʻlidagi ogʻir mehnat, sabr, ichki kurashlar, yaqinlar, ustozlar qoʻllari va albatta, ortingizda togʻdek madad boʻlib turgan vatan va xalq ishonchi keladi.

Men uchun 2025-yil ana shunday hislar bilan esda qoldi. Shaxmat taxtasi yonida oʻtirib, har bir yurishni oʻylab amalga oshirgan, ming bir hayajon bilan oʻtkazgan lahzalarim koʻp boʻldi. Oʻsha pallalarda nafaqat raqib, balki oʻzim bilan ham bahsga kirgan paytlarim yetarli.

2025-yil xalqaro maydonlarda koʻplab yirik turnirlarda ishtirok etdim. Kuchli raqiblar, keskin partiyalar, bir necha soatlab choʻzilgan oʻyinlar hayotimning odatiy manzarasiga aylandi. Osiyo va jahon miqyosidagi musobaqalarda qoʻlga kiritilgan gʻalabalar, reytingdagi oʻsish, terma jamoa safida erishilgan natijalar, oʻylaymanki, yurtimiz yoshlarining intellektual salohiyatiga dalil, mamlakatimizda sportga, xususan, shaxmatga alohida eʼtibor va ragʻbatning amaldagi namoyoni boʻldi. Ayniqsa, Hindistonning Goa shahrida oʻtkazilgan FIDE jahon kubogida gʻolib boʻlib, bunday

natijaga erishgan tarixdagi eng yosh shaxmatchi sifatida eʼtirof etilishim oʻzimga, oʻz kuchimga ishonchimni yanada oshirdi. Bu gʻalaba jahon shaxmat toji uchun kurashish imkonini beruvchi nomzodlar musobaqasida qatnashish yoʻllanmasini taqdim etishi bilan ham juda ahamiyatli edi.

Oʻtgan yil davomida boshimdan oʻtkazgan eng esda qolarli voqealardan biri Prezidentimiz bilan uchrashuv boʻldi. Davlatimiz rahbari menga “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan sportchi” unvonini berib, mukofotlarni topshirar ekan, bu eʼtibor shaxsiy yutuqdan kengroq maʼno kasb etishini chuqur his qildim. Bu ishonch oʻzbek shaxmatiga, yosh sportchilarga, intellektual mehnatga berilgan yuksak baho sifatida qalbimdan chuqur joy oldi. Oʻsha uchrashuvdan keyin xalqimiz oldidagi daxldorlik masʼuliyatim yanada ortdi deya olaman.

Yangi yil kayfiyati bilan kelajak haqida koʻp oʻylayapman. Oldinda turgan asosiy maqsadlarim aniq. Bu yil boʻlib oʻtadigan nomzodlar turnirida munosib ishtirok etish niyatim bor. Mazkur musobaqa shaxmat olamidagi eng katta sinovlardan biri sanaladi.

Bunda har bir partiya, har bir yurish, har bir qaror jahon shaxmat tojiga etadigan yoʻlning bir boʻlagi. Oʻsha yoʻlda bor kuchimni sarflab, yurtimiz bayrogʻini eng yuqori choʻqqiga olib chiqish orzusi bilan yashayapman.

2026-yil shukhi kunlarida ich-ichimda oʻziga xos xotirjamlik, shukuh va eng muhimi, ishonch bor. Oʻrta qolgan 2025-yil esa menga nafaqat sportda, balki hayotda ham asqatadigan saboqlar berdi. Uni tengdoshlarim, uka-singillarim bilan ham boʻlishmoqchiman: imkoniyatlaringizga, bilim va salohiyatingizga ishonim, mehnatdan qochmang. Shunda natijalar oʻz vaqti bilan birin-кетин kelaveradi, orzular ushaladi.

Yangi yil barchamizga yangi imkoniyatlar, toza niyatlar ijobatini olib kelsin. Men oʻsha imkoniyatlarni shaxmat taxtasi ustida, halol kurash va tinimsiz izlanish bilan qarshi olishga tayyorman.

Javohir SINDOROV,
xalqaro grossmeyster,
Oʻzbekiston Respublikasida
xizmat koʻrsatgan sportchi

MUNDIALDA VATANIMIZ SHAʼNINI MUNOSIB HIMOYA QILAMIZ

Gapni uzoqdan boshlagim yoʻq. Shusiz ham bu kunlarni uzoq kutganmiz. Shundanmi, ortda qolgan yil haqida eslasam, koʻz oldimda, birinchi navbatda, futbol oʻyingohi aks etgan manzara gavdalanadi: xalqimizning oʻttiz toʻrt yillik orzulari roʻyobga chiqqan lahza, Oʻzbekiston ilk bor jahon chempionati yoʻllanmasini qoʻlga kiritgan kun.



Albatta, bu marraga osonlikcha yetganimiz yoʻq. Gʻalabalar ortida yillar mobaynida maydonda va maydon tashqarisida qilingan zahmatli mehnatlar, bolalar futbolidan tortib, terma jamoagacha boʻlgan bir butun tizimni tashkil qiluvchi infratuzilma, davlat darajasidagi eʼtibor, stadionda, ekran qarshisida jamoa uchun chin dildan jon kuydirgan millionlab muxlislar, ona xalqimiz, Vatan turibdi! Shu tufayli ham 2026-yilgi jahon chempionatiga yoʻllanma men uchun, butun jamoamiz uchun chin maʼnoda faxr boʻldi. Bu xalqning ishonchi, duosi bilan kelgan tarixiy baxt edi.

Eng esda qolarli lahzalar esa, shubhasiz, 2025-yil 5-iyun kuni BAga qarshi hal qiluvchi safar oʻyinida roʻy berdi. Toʻgʻri, biz qol kiritib, gʻalaba qozonmadik. Ammo ishonitirib aytamanki, faoliyatim davomidagi hech bir gʻalaba oʻsha kungi durang natijasidan ortiqroq quvonch hadya etmagan menga, bu futbolndan-da kattaroq narsa edi... Bu quvonchini faqat birgina soʻz bilan ifodalash mumkin: MUNDIAL!

Shu kuni Prezidentimiz telefon orqali terma jamoamizni alohida tabrikлади. Bundan buyon ham har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga tayyorligini aytib, yuksak ishonch bildirdi. Davlatimiz rahbarining tabrikda aytgan

“Aminman, bu tarixiy yutuq xalqimizni ezgu maqsadlar yoʻlida yanada birlashtiradi, ming-minglab yoshlarimiz uchun ilhom manbaiga, ibrat timsoliga aylanadi, Yangi Oʻzbekistonning xalqaro obroʻ-eʼtiborini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Sizlar futbol maydonlaridagi mana shunday shonli yutuqdan yangi kuch va ruh olib, kelgusi yili AQSH, Meksika va Kanada davlatlarida boʻlib oʻtadigan jahon chempionatida nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining birinchi va yagona vakili boʻlishdek yuksak sharafni chuqur his etgan holda, yanada katta jonbozlik koʻrsatasizlar, deb ishonaman”, degan soʻzlari koʻnglimizni togʻday koʻtardi, ayni chogʻda zimmamizga xalqimiz, Vatanimiz oldida yangi masʼuliyat yukladi.

2025-yil 10-iyun kuni Toshkentdagi “Bunyodkor” stadionida Qatar terma jamoasiga qarshi boʻlib oʻtgan saralash bosqichining soʻnggi tur bahsi ham chinakam bayramga aylanib ketdi. Prezidentimiz uchrashuvni stadionda tomosha qildi, bayramona kayfiyat butun arenani qamrab oldi. 86-daqiqada hisobni 2:0 koʻrinishiga keltirgan golga mualliflik qilganim aslo yodimdan chiqmasa kerak.

Oʻyindan soʻng butun delegatsiya aʼzolarining munosib taqdirlanishi esa yurtimizda futbolga alohida eʼtibor, yoshlarga yuksak ishonch ramzi boʻldi.

Endi oldimizda jahon chempionati maydonlari turibdi. Yaxshi bilamiz: u yerda hamma narsa boshqacha boʻladi, tezlik, bosim, shu bilan birga, imkoniyat ham. Jamoa sardori, Yevropa maydonlarida toʻp tepgan, u yerdagi futbolchilar bilan oʻzimizning yigitlarni solishtirish imkoniga ega inson sifatida bemalol aytishim mumkin, bizda har qanday raqibga qarshi munosib qarshilik koʻrsata oladigan, yetuk, mahoratl oʻyinчилardan iborat bir butun avlod shakllangan.

Yangi yil kirib kelgan shu damlarda odam rejalar tuzadi, oʻziga oʻzi vaʼdalar beradi. 2026-yilga qadam qoʻyar ekanmiz, xalqimizga vaʼda beramiz: biz jamoamiz bilan butun dunyo koʻz oʻngida xalqimiz, muxlislarimiz ishonchini, albatta, oqlaymiz, mundialda Oʻzbekiston nomini munosib himoya qilamiz.

Eldor SHOMURODOV,
futbol boʻyicha Oʻzbekiston milliy
terma jamoasi sardori



Mulohaza

QUT-BARAKA, OSOYISHTALIK VA EZGULIK YILI

Qahraton qishning izgʻirini oqshomi, tashqarida boʻralab qor yogʻayotgan, tabiat oppoq libosga burkanib, sokin uyquga ketgan fusunkor bir palla. Uyimiz atrofidagi daraxtlar shoxlarida qoʻnim topgan qor parchalari xuddi kumush tangalarni yodga soladi. Yosh-u qari qoʻshnilar jam boʻlib, boʻsagʻadagi ayvon tagida suhbat qurib oʻtiribmiz. Davramiz toʻrida oʻrin egallagan sakson yoshni qarshilagan Olim bobo qoʻshnilardan biri damlab chiqqan qaynoq choydan hoʻplar ekan, nigohlarini bir nuqtaga qadaydi, uning har bir soʻzi, har bir harakati biz uchun xuddi hayot darsligi vazifasini oʻtaydi.

Olim boboning qadoq qoʻllariga termilaman: bu qoʻllar shunchaki tana aʼzosi emas, balki mashaqqatli mehnat, sabr-toqat va halollik

bilan bitilgan tirik tarix kitobidek. Otaxon sekin tomoq qirib, soʻz boshlaydi, uning ovozi yil boʻyi toʻplangan hikmat va kelajakka boʻlgan

mustahkam ishonch ohanglari jam. “Bolalarim, — deydi u vazminlik bilan, — mana, Ilon yili ham oʻz poyoniga yetib borayotir, donishmand Sharq bejiz yillarni jonivorlar nomi bilan atamagan, zero, har birining oʻz niyati, oʻz hikmati mavjud”.

Darhaqiqat, yakuniga yetgan 2025-yil oʻzining vazminligi, chuqur mulohazalarga boyligi bilan xotiramizda saqlanib qoldi. Ilon muchali Sharq taqvimida aql-zakovat, uzoqni koʻra bilish va ehtiyohtkorlik ramzi hisoblanadi. Oʻtgan davr mobaynida xalqimiz har bir ishini yetti oʻlchab bir kesib, poʻydevorlarni yanada mustahkamladi, kelgusi katta maralar uchun puxta rejalar tuzdi. Olim otaning taʼkidlashicha, Ilon yili insonni

shoshma-shosharlikdan tiyib, aql chirogʻi bilan yoʻl tanlashga oʻrgatgan davr boʻldi, endi esa navbat shiddatga, harakatga va yuksak parvozlariga yetib keldi.

“2026-yil ot muchali sanaladi, — deya soʻzida davom etadi bobo koʻzlarida oʻzgacha uchqun aks etib. — Ot shunchaki jonivor emas, balki yigitning qanoti, erkinlik va sadoqat timsolidir. Bobom rahmatli otboqar oʻtgan va u aytardiki, Ot yilida tugʻilgan reja qogʻozda qolib ketmasligi kerak, chunki ot chopish uchun, manzilga yetish uchun yaralgan. Kirib kelgan yil tinim bilmas mehnat, halol peshana teri va ulkan bunyodkorliklar davri boʻlishi kutilmoqda”.

Keksa otaxonning ayni oʻgʻitlari zamirida katta haqiqat mujassam. Sharq falsafasida ot quyosh va olov usuri bilan uzviy bogʻlanadi, uning tabiati joʻshqin, harakatchan va olijanob hisoblanadi. Eʼtibor qaratadigan boʻlsak, ot hech qachon egasiga xiyonat qilmaydi, xavfni oldindan sezadi va oʻz uyurini himoya qilishga

intiladi. Aynan ushbu jihatlar yangi yilda jamiyatimizda insoniy munosabatlarda yanada mustahkamlanishi, mehr-oqibat rishtalari bogʻlanishi va vatan taqdiriga daxldorlik hissi yuksalishidan darak beradi.

Olim ota choyini oxirigacha ichib, piyolani toʻntarar ekan, yana bir hayotiy hikoyani yodga oldi: “Yoshligimda chopqir otim bor edi, laqabi Gʻirkoʻk boʻlib, uning yurishi shunagangi ravon ediki, ustidagi piyoladagi suv toʻkilmadi, lekin yugurishga tushsa, shamol bilan poygaga kirishardi”.

Ot yilining xosiyati ham shunda namoyon boʻladi — u ham ravonlikni, ham tezlikni talab etadi. Mamlakatimiz bugun xuddi oʻsha tulpor yangligʻ Uchinchi Rennessans sari dadil odimlamogʻda. Ilon yilida ekilgan don, oʻylangan rejalar endi Ot yilining kuchi va gʻayrati bilan hosilga kiradi, roʻyobga chiqadi.

Subhatimiz qizigʻandan qizib, mavzu ot muchalining baraka va rizq-roʻz keltirishi haqidagi qarashlarga ulandi. Xalqimizda “Ot bor uyda qut-baraka boʻladi” degan naql bejiz aytilmagan. Otaxonning eʼtirof etishicha, bu yil dehqonchilikda hosil moʻl boʻlishi, dasturxonlarimiz toʻkinligi va xalqimiz farovonligi ortishi kutilmoqda. Buning sababi oddiy — ot mehnatkash jonivor hisoblanadi va u tinimsiz harakatda boʻlgani uchun ham uning rizqi butun boʻladi. Dangasalik, loqaydlik ot muchaliga begona xislatlar sanaladi, kimki astoydil mehnat qilsa, oʻz kasbiga mehr qoʻysa, tulpor yili uni albatta taqdirlaydi, yuksak maralariga olib chiqadi.

Ochigʻi, boboning soʻzlarini tinglab, qalbimda kelajakda ishonch yanada ortdi, goʻyoki uzoqda qorli dalalar uzra koʻrinmas, ammo shiddatli tulporlar dupuri eshitilayotgandek tuyuldi. Bu dupurlar — yangilanyotgan Oʻzbekistonning, oʻz maqsadlari sari intilayotgan yoshlarning va duogoʻy keksalarimizning yurak urishiday.

“**Ot yilida boshlanadigan har bir xayrli ish tezkorlik bilan amalga oshishi, kutilganidan ham aʼlo natijalar berishi bashorat qilinadi, chunki otning tabiati toʻsiqlar oldida toʻxtashni emas, balki ulardan sakrab oʻtishni, yangi ufqlarni zabt etishni xush koʻradi.**

Kecha yarmidan oqqanda Olim ota duoga qoʻl ochdi va uning yuzidagi har bir ajin nurlanib ketgandek koʻrindi. “Ilohim, — dedi u ishonchli ovoza, — yangi yil yurtimizga tinchlik, xonadonlarimizga xotirjamlik olib kelsin, amalga oshirilayotgan barcha ezgu ishlar tulpor tezligida rivojlansin. Xalqimizning rizqi ulugʻ, martabasi baland boʻlishi nasib etsin, otning kuchi bilagimizga, shijoati yuragimizga koʻchsin”.

Barchamiz “Omin!” deya yuzimizga fотиha tortdik. Qor yogʻishdan toʻxtab, osmondan yulduzlar charaqlab ketgan edi. Goʻyoki tabiatning oʻzi ham oppoq qor gilami ustidan kirib kelgan yangi yil — shonli va shiddatli Ot yiliga peshvov chiqishga hozirlik koʻrayotgandek tasavvur uygʻotadi. 2026-yil shunchaki taqvimning almashishi emas, balki har birimiz uchun yangi imkoniyatlar, yangi zafarlar va yuksak maralar sari tashlanadigan dadil qadam boʻlishi shubhasiz. Zero, manzilimiz aniq, yoʻlimiz yorugʻ, bir yillik hamrohimiz esa sadoqat va gʻayrat timsoli boʻlmish tulpor yili sanaladi.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Boʻronov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy